



Ta’lim-tarbiyaga yangicha yondashish-bugungi kunning talabi

Naima Jo’raeva Abdurasulovna

Namangan viloyati Uychi tumani

8-umumiy o’rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Mazkur tezis ta’lim-tarbiya masalalariga yangicha yondashuv asoslariga bag’ishlangan

Kalit so’zlar: Ta’lim-tarbiya, zamon, yoshlar, taraqqiyot, jamiyat.

Jamiyat hayotining jadal tarzda rivojlanishi, taraqqiyot ehtiyojlari va imkoniyatlarining kengayishi, turli-tuman axborotlar oqimining tezlashishini hisobga olib, ta’lim-tarbiyaga yangicha usullaridan foydalanishni talab etadi. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar o’qitish jarayonining imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo qiladi. Shundagina ta’lim jarayonining natijalari fan, ishlab chiqarish, madaniyat, iqtisod hamda jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga xizmat qila oladi.

Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo’lib, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan ta’lim sohasida xam yetakchi o’rin egallamoqda. Bu o’rinda o’qituvchiga albatta psixologik-pedagogik yondashuvni talab etadi. O’quvchi yoshlarning o’ta qiziquvchanligi, talabchanligi pedagoglarni yanada o’sishga, zamon bilan xam nafas bo’lishga chaqiradi. Ta’lim-tarbiyaga yangicha yondashishda ota-onalardan xam katta mashuliyatni talab qiladi.



Pedagog o'quv jarayonini tashkil qilishda, bolani birgina predmetga bo'lgan ko'nikmasini rivojlantirishi uchun bolaning barcha bilish jarayonlarini ishga solishi yaxshi natija beradi. Bunda axborot vositalari, musiqa, turli didaktik materiallarni ishlab chiqish muxim ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiyada xar tomonlama yondashuv bolaning yosh davrlariga qarab ajratib olinadi. Ularning fiziologik rivojlanishi o'xshash bo'lsada, psixologik o'sishi xususan xotirasi, qabul qilish darajasi, diqqati xarakteri turlicha bo'lad. Bu borada sinfda ta'lim olayotgan yoki biror bir maqsad bilan yig'ilgan jamoaga umumiy mahqul keladigan muxitni pedagoglar, moxirlik bilan yaratishlari kerak. Bunda XXI asr – tezkor texnika davrining zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'rinlidir. Bizga mahlumki, eskirgan ta'lim jarayoni, bolani zeriktirib qo'yishi, muxitga moslashishi aksincha undan yiroqlashishi kuzatiladi va jamoada o'z o'rnini topishida qiyinchilik tug'diradi. Pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish, bolaning tayyorgarligini tekshirish, darsga yangicha yondashish ayni bugungi kunning masalasi hisoblanadi.

Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik tomonlarini amerikalik olim E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari, tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi. Ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashish bugungi kunda ta'lim soxasida, oila, mahalla va ijtimoiy soxaning barcha subhektlarini o'z ichiga olmoqda. SHunigdek ta'lim tarbiya jarayoniga yangicha yondashishda darslarda, ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalari bilan cheklanib qolmasdan o'quvchilarning ijodiy faolitlaridan, tasviriy sanht, tikuvchilik, milliy xunarmanchilik va badihy ijod nahmunalaridan keng foydalanish xam talab etiladi. Bu esa o'quvchi o'zliginini bilishga, “men”ini tanitishga, shaxsiy fikriga va nimalarga qodir ekanligini anglashi, uning o'z-o'zidan o'quv jarayoniga qiziqishini oshiradi.

Jamiyat o'sib taraqqiy etib borar ekan, texnologiyalarning tez sur'atda rivojlanayotgani, hozirgi vaqtda fan-ta'lim tizimi uchun, har bir o'quv yilida ta'lim jarayonini takomillashtirishni talab etib boraveradi. Bu esa o'z navbatida biz pedagoglardan to'xtab qolmasdan, yana va yana odimlashga turtki bo'ladi.